

ULAMOLAR SAVOL BERISH VA MUNOZARA HAQIDA

Boymirzayeva Feruzaxon G'ulomovna

*Farg'ona "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik
litseyi ona tili va adabiyot fani bosh o'qituvchisi.*

Annotatsiya: *Maqolada muloqotning asosini tashkil etuvchi savol berish, so'rash, javob berish, tushuntirish, tortishuv, munozara o'tkazish talablari va odobi haqida ulamolarning qimmatli fikrlari tahlilga tortilgan.*

Tayanch so'zlar: *munozara, muloqot, ilmi kalom, tortushuv, jadal ilmi, bahs odob*

АННОТАЦИЯ: *В статье изложены ценные мнения ученых о требованиях и манерах задавать вопросы, спрашивать, отвечать, объяснять, спорить, обсуждать, которые являются основой общения.*

Ключевые слова: *дискуссия, диалог, наука о речи, дебаты, наука скорости, этикет дебатов.*

Abstract: *The article describes the valuable opinions of scholar about the requirements and manners of asking, answering, explaining, arguing, which are the basis of communication.*

Key words: *discussion, dialogue, science of speech, debate, science of speed, debate, etiquette.*

Sharq allomalari ko'pligi bilan, qomusiy olimlar yetishtirgani bilan dunyoni hayratga solgan. Sharqda har bir fan chuqur o'rganilgan. So'z so'zlash, savol berish, muloqot qilish, munozaraga kirishish, so'rash, sukut saqlash, iltimos qilishning qoidalari, fundamental asoslari ishlab chiqilgan. Kalom ilmi, jadal ilmi, munozara ilmi fanlaridan madraslarda ta'lim berilgan.

XIII asrning boshlarida tarjima asri boshlangan. Ritorika vatani bo'lgan Yunonistonda yaratilgan ko'plab nodir ilmiy asarlar dastlab arab tiliga tarjima qilingan. "Ilmi yunon" asari arab tiliga "Ilmi kalom" deya tarjima qilingan. Savol berishga va munozarada g'olib bo'lishni o'rgatuvchi ilm bu jadal ilmi. Unga ko'ra Musalam bo'lgan 2 taraf ham tan beradigan savollar berish ilmi. Qoidaga ko'ra ketma-ket ravishda mantiq va aqliy qoidalarga asoslangan savollar beriladi. Savollarning grammatik jihatdan tuzilishi, savol berish ohangi, savol berish vaziyati, savol berish o'rni ham chuqur o'rgatilgan. Bu ilm ba'zi bir haqiqatlarni isbotlashni o'rgatadigan ilm deb qabul qilingan. Buyuk olim Faxr ar-Roziy jadal ilmiga juda usta bo'lgan. Talabalar ilmi kalomni o'rganib keyin aqlan yuksalgan. Har bir so'zning o'z o'rnini, vaziyatini, ta'sirini o'rganishgan.

Sharqda munozaraga kirishishning ham ilmi ishlab chiqilgan. Bir muammo yoki mavzu doirasidagi samarasiz tortishuvdan munozaraning farqi katta bo'lgan. Munozara odobi ilm darajasiga ko'tarilgan. "Ihtilof bo'lib ko'rinayotgan narsa nafsning o'zi xolos, unda din yo'q", - deya uqtirilgan. Hazrati Imom o'g'lidan tortishuvda

qatnashayotganidan ranjiydi. O'gli otasiga o'zi ham totishuvlarda ishtirok etganligi haqida so'raganida Hazrati Imom: "Men raqibibni biror marotaba mag'lub bo'lishini orzu qilmaganman. Birodarimning tiliga haqiqatni chiqar deb Allohdan so'rayman",- deydi. O'gli: "Sizlar ham tortishasizlar-ku, - desalar, olim zot biz haqiqat g'olib bo'lsin deb tortishamiz, sen men g'olib bo'lay deb tortishyapsan, farqi shundadir, - demish.

Munozara qoidasiga ko'ra munozara ishtirokchisi haq g'olib bo'lsin desa to'g'ri hisoblanadi. O'zini g'olib bo'lishini istayotganlar munozaradan qaytishi talab etilgan. Munozara yakunida munozara ishtirokchilarining har ikkisi mamnun bo'lishi kerak. Agar tortishuv savol -javob keskinlashib baqirish va so'kishga o'tilsa munozara toxtaydi. Chunki munozara tortishuvlarga munozara ilmini biladigan Imom Shofiy, imom G'azzoliy, kabi savol berishni javob berishni o'rganish lozim.

Imom Shofiy "Men yaxshiman desangiz munozara harom hisoblanadi. Qalbingizga qarang, agar g'olib bo'lish uchun bo'lsa bu xato", -deya nasihat qilgan. Olim munozarani quyidagicha o'xshatadi. Men misni tilla deb tursam," e, taqdir u mis, mana tillamiz",- desa nega xursand bo'lmayin deya tushuntiradi.

"Alloh bir qavmga yaxshilikni iroda qilsa, amalni berib, tortishishni olib qo'yadi, Agar Alloh bir qavmga yomonlikni iroda qilsa, tortishuvni berib amalni olib qo'yadi",- deganlar Imom Abu Hanifa. Odob bilan savol berish haqida ham bir qator qimmatli ma'lumotlar bor. Munozarada odobi bilan savol berish, javobni to'g'ri tushunish, munozara jarayonida ahli ilmni nizo chiqarmaslik, olimlarni xafa qilmaslik maqsadida biror inson ismini aytib "falonchi bunday dedi-ku", - demaslik lozim. So'ramaslikning iloji qolmaganda

Bir inson shunday holatda, quyidagicha javob bergandi, siz qanday munosabat bildira olasiz? -deya so'rash lozimligi aytilgan. Misol keltirganda shu kishini nomini aniq aytish mumkin emas, "Otam so'radi deb emas, ba'zi kishilar shunday bo'lsa deb so'rash mumkin.

Olim Ibn Qayyum esa: "Olimning huzurida otirganingda mot qilish uchun emas, o'rganish uchun savol bering",- deganlar. Ammo bu ilm olish uchun savol so'ramaslik kerak degani emas. "Bilmasalaringiz, ilm ahlidan so'rang degan", Alloh Taoloning so'zlari mavjud.

Ilm savol berishdan boshlanadi. Ikki toifa ilm ola olmaydi: birinchisi - mutakabbir inson kibrlanib savol bermaydi, ikkinchisi - uyatchan odam savol bermaydi va ilm ola olmaydi. Demak, ilm olish va uni mustahkamlash uchun ham savol berish kerak. Rivoyat qilishlaricha, Makka shahri ayollari savol so'rashdan uyalganlar, Madina shahri ayollari payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v)dan savol so'rashdan uyalmaganlar. Ilm mukammal bo'lishi uchun savol berishganlar va ilmlari rivojlangan, e'tiqodlari mustahkamlangan.

Ilmning bosqichilari haqida quyidagicha ma'lumot beriladi. Ilmning avvali odob bilan savol berishdir. Unga ko'ra savol berishdan oldin savolni aniq holga keltirish kerak. Savolning boshlashidan insonilmi va odobini bilish mumkinligi aytiladi. Ilmning ikkinchi bosqichi odob bilan quloq solish. Diqqat bilan javobni tinglash. Yuz,

ko'z, qosh ifodasi bilan odobsizlik qilmaslik. Sabr bilan eshitish. Jasad bilan norozilik qilmaslik. Ilmning 3- bosqichi odob bilan tushunish.

Haqiqatni yuzga chiqarish uchun qilingan munozara ne'mat bo'lsa, janjalga aylanib ketgan munozara ofatdir. Suhbatni ne'matga aylantirish, foyda ko'rish uchun savol berish ilmini bilishimiz kerak. Suhbat janjalga aylanmasligi kerak. Munozaradan maqsad o'rinli gapni, o'rinsiz gaplardan ajratib olish kerak. Inson munozaraga kirisharkan u holislik, halimlik me'zoniga amal qilmog'i lozim. "Men shunday deb oylayman, lekin boshqacha bo'lishi mumkin. Men uning fikrini xato deb oylayman, lekin to'g'ri bo'lishi mumkin" kabi jummalarni nutqda qo'llash va kesrinraddiya bildirmaslik kerak.

Imom Shofiy riyokorlik, xatokorlik, o'jarlik, mutakabbirlik, janjalkashlik, pastkashlik, kattazanglikni suhbatda suhbatdoshini mag'lub qilishga - mot qilishga tenglashtirgan. Behuda bahslarga yo'l qo'ymaslik buyurilgan. Abdulloh ibn Abbas shunday deydilar: "Kim dinini hurmat qilmoqchi bo'lsa, havoyi nafs egalari bilan munozara qilmasin". Lekin insonlar zalolatga ketmasligi uchun ular bilan ilmiy saviyada suhbatlashish kerakligi o'rgatilgan.

Inson o'zi bilan qarshi tafakkurli insonlar bilan yumshoqlik va muloyimlik bilan munozara qilishi, munozarani duolar bilan boshlash kerak, chunki duo suhbatdosh raqibning qalbini yumshatadi. Masalan, payg'ambarimizning muloyim so'zlashdek oliyjanobligidan ta'sirlanib bir guruh insonlar islomga kirishadi. Alloh Taolo "Firavnga borib yumshoq so'z aytinglar, shoyad pand nasihat olsa" - , deya muloyim so'zlash haqida ko'rsatma bergan.

Diniy ulamolar da'vati muloyim va ta'sirchan bo'lishi kerak. Qattiq, do'q ohang va qo'pol so'zlardan, jummalardan tuzilgan da'vat tinglovchiga aks ta'sir qilishi mumkin. Zamonimizdagi da'vatchilar kanallarda islom haqida gapiryapti. Bahs- munozara tashkillayapti. Lekin hammasining ham nutqi nutq madaniyati talablariga javob bermaydi.

Hamisha ham baland ovozda qattiq ohangda suhbatdosh bilan gaplashish samarali hisoblanmaydi. Bir da'vatchi podshohga juda qattiq da'vat etibdi. Shunda podshoh :

"Men Firavn emasmanki, menga bunday qattiq so'zlasangiz, siz ham Muso alayhissalom emassizki, menga nasihat qilsangiz",- deya suhbatdoshdan xafa bo'lganlar. Bunda suhbatdoshga murojaat qilganda so'zlovchi va tinglovchining vaqti, suhbat muhiti, suhbatdosh kayfiyati, suhbatdoshlar yoshi, bilim darajasi, mavqeyiga qarab murojaat etish kerakligi, aks holda, nutq madaniyati me'zonlari buzilib, suhbat besamara bo'lishini kuzatish mumkin.

Rivoyat qilishlaricha, Imom Molik juda go'zal va ta'sirchan nutq so'zlagan. Bu ta'sirchan nutqni maroq bilan tinglash, insonlarga murojaat qilish va savol berishlarini o'rganish uchun talabalar darslarda qatnashishgan va shunday deganlar: "Ilm majlislarida o'n ming kishi qatnashib besh ming kishi ilm olish uchun borishsa, 5000 kishi Imom Molikning go'zal va ta'sirchan nutqini, axloqini, o'rgangani borar edik. 30

yil axloqimiz ustida ishladik. Salaflar keyin Imom Molik axloqlari bilan axloqlandik va shogirdlarga o'rgatdik ”.

Imom Molik munozaraga kirishishdan oldin Allohdan panoh tilab, ixlosni yangilab “Alloh menga haqiqatni raqibimning tilidan topshimga nasib et “,- deya duo qilar ekanlar. Suhbat va munozara chog'ida tilga ehtiyot bo'lish zarurligini aytib “Til bir suyaksiz zayif go'sht, uni o'ttiz ikki qo'riqchi bilan qo'riqladi. Gapirishdan oldin o'ttiz ikki marta o'ylab, so'ng so'yla “,- demish dono xalqimiz.

Munozara yoki suhbatda ovozning ohangi qattiqroq chiqsa, u suhbatga devor qo'yadi. Agar ton pastroq kelib, uzr so'rab, “Alloh sizga madad bersin va qo'llasin”, - deya suhbatni boshlasa, munozaradagi g'alabaning boshlanishi degani.

Ustoz va shogird bahsi odobi ham alohida mavzu. Ustozi bilan munozara o'tkazish, hurmatsizlarcha bahs qilish uyat va aqlsizlik. Bugun ayrim yoshlar “Men zakiyman”, - deb o'ylaydi. “Qayerdan o'qiding?”, - deya savol berilsa, “Internet saytlaridan”, - deya javob bermoqda. Internet tarmog'idan topgan asossiz gaplarni yod olib ustoz bilan tortishmoqchi bo'ladi. Ustozdan bilimliroqman deya bahsga kirishishni ulamolarimiz axloqsizlik ko'rinishi deya baho berishgan. Uning egosini – kibrini yo'qotish, sindirish kerak. Kim ahli ilmni hurmat qila olmasa, ilm ola olmasligi o'rgatilgan.

Inson axloqining go'zalligi, so'zining halimligi bilan suhbatdoshining hurmatini oshira olsa va u hamfikrga aylanadi. Munozara samarali yakun topadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Masharipova Z. Ifodali o'qish praktikumi. Bakalavriyatning “O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani” bilim sohasi talabalari uchun darslik Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti-2011 -y.

2. Фируз Давронович Музаффаров. Имом Ғаззолий Баҳс-Мунозара санъати – мумтоз ўрта аср Схоластика баҳс-мунозара маданиятининг юксак намунаси .

3. <https://youtu.be/NzpGdYbZv-Q>

4. <https://youtu.be/mfmgZcQvNvg?si=5QL7Uc58d46Dhqbl>

5. <https://uz.how-what-advice.com/13100810-3-ways-to-answer-discussion-questions>

6. <https://kh-davron.uz/kutubxona/islomiy-adabiyot/imomi-azam-nasihatlari.html>